XALQ DEPUTATLARI MINGBULOQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-13-116-6-81-K/25 Mingbuloq tumani

Mingbuloq tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Namangan Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02/10-7131-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Mingbuloq Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Mingbuloq tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari va xarajatlari 130564550.0 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Mingbuloq tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 260965.0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq hamda tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1584574.0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Abduraxmonova) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

MANSUROV AXROR AXMADALIYEVICH

Xalq deputatlari Mingbuloq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-116-6-81-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Mingbuloq tuman byudjeti daromadlarining 2026 yilgi prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

№	DAROMAD TURLARI	Jami kontingent prognoz	shundan,				Mahalliy byudjet prognoz
			MRI	Hudud	shundan		
					DSB	DSI	
I.	**JAMI**	**188.817.300**	**6.176.000**	**182.641.300**	**150.414.189**	**32.227.111**	**130.564.550**
1	Foyda solig‘i	5.035.000		5.035.000	5.035.000		1.007.000
2	*Norezidentlar foydasidan soliq*						
3	Aylanmadan olinadigan soliq	3.768.000		3.768.000		3.768.000	3.768.000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	70.080.000	2.903.000	67.177.000	62.664.000	4.513.000	60.489.300
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	255.000	5.000	250.000	100.000	150.000	255.000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	36.651.000		36.651.000	36.651.000		5.864.160
6	**Aksiz solig‘i**	**15.131.000**	**1.825.000**	**13.306.000**	**13.306.000**		**11.975.400**
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	*15.131.000*	*1.825.000*	*13.306.000*	*13.306.000*		*11.975.400*

7	**M o l - m u l k solig‘i**	**11.363.000**	**1.113.000**	**10.250.000**	**2.094.000**	**8.156.000**	**10.250.000**
	yuridik shaxslar	*3.587.000*	*1.113.000*	*2.474.000*	*2.094.000*	*380.000*	*2.474.000*
	jismoniy shaxslar	*7.776.000*		*7.776.000*		*7.776.000*	*7.776.000*
8	**Yer solig‘i**	**19.993.111**	**331.000**	**19.662.111**	**4.362.000**	**15.300.111**	**19.662.111**
	yuridik shaxslar	*5.135.000*	*331.000*	*4.804.000*	*4.362.000*	*442.000*	*4.804.000*
	jismoniy shaxslar	*14.858.111*		*14.858.111*		*14.858.111*	*14.858.111*
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	11.000		11.000	11.000		11.000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10.349.189	4.000	10.345.189	9.963.189	382.000	6.535.989
11	**Boshqalar**	**16.436.000**		**16.436.000**	**16.328.000**	**108.000**	**11.001.590**
	DUK sof foydasidan ajratmalar	*1.000*		*1.000*	*1.000*		
	Davlat boji	*7.584.000*		*7.584.000*	*7.584.000*		*6.067.200*
	Yig‘imlar	*1.992.000*		*1.992.000*	*1.992.000*		*438.240*
	Jarimalar	*6.751.000*		*6.751.000*	*6.751.000*		*4.388.150*
	Davlat mulkini ijarasi	*108.000*		*108.000*		*108.000*	*108.000*

Xalq deputatlari Mingbuloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-116-6-81-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yil uchun Mingbulok tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Mingbuloq tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**130.564.550**
1	Maktabgacha va Maktab ta‘limi bo‘limi	*56.407.133*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3.151.800*
3	Madaniyat bo‘limi	*5.646.571*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4.613.398*
5	Sport bo‘limi	*4.245.249*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1.228.123*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2.463.450*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*2.922.135*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2.326.727*
10	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*144.755*
11	Hokimiyat	*33.563.398*
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*18.793.080*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1.364.000*
	Zahira jamg‘armasi	*1.584.574*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*914.832*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*74.164*
	Axborot-kutubxona markazlari	*840.668*
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	16.088.779

Xalq deputatlari Mingbuloq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-116-6-81-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026 yil uchun ajratma me’yorlari
P R O G N O Z I

foiz hisobida

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				QQS				Foyda solig‘i			
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
0%	90%	100%	10%	100 %	100 %	0%	0%	0%	80%	100%	20%	0%	20%	100%	80%

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
0%	90%	100%	10%	0%	100 %	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	80%	20%	65%	35%	22%	78%